



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARI

Boboqulov Sanjar Bahromqulovich

ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ

Бобокулов Санжар Бахромкулович

ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF COMMUNAL SERVICES PROVISION

Bobokulov Sanjar Bahromkulovich

Received: February 6, 2026 Revised: February 9, 2026 Accepted: February 15, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida uy-joy kommunal xo'jaligi sohasining bugungi holati, mavjud muammolar va ularning kelib chiqish omillari tahlil qilinib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytirayotgan asosiy sabablar aniqlangan. Maqolada boshqaruv tizimini optimallashtirish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini standartlashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, tarif siyosatini iqtisodiy asoslash, investitsiyalarni jalb etish hamda moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro uzviy bog'liqligi asoslab berilib, ularni kompleks va muvofiqlashtirilgan holda qo'llash kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kommunal xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, uy-joy kommunal xo'jaligi, boshqaruv tizimi, tarif siyosati, investitsiyalar, moliyaviy barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish, xizmatlar sifati.

Аннотация: В данной статье комплексно исследованы организационно-экономические механизмы повышения экономической эффективности системы предоставления коммунальных услуг. В процессе исследования проанализировано современное состояние жилищно-коммунального хозяйства, выявлены существующие проблемы и факторы их возникновения, а также определены основные причины, снижающие экономическую эффективность отрасли. В статье раскрыта сущность оптимизации системы управления, стандартизации процессов оказания услуг, повышения кадрового потенциала, экономического обоснования тарифной политики, привлечения инвестиций и механизмов финансового стимулирования. Кроме того, обоснована взаимосвязанность организационных и экономических механизмов и доказано, что их комплексное и скоординированное применение способствует повышению качества коммунальных услуг, оптимизации затрат и обеспечению финансовой устойчивости. Результаты исследования имеют практическое



значение для дальнейшего совершенствования реформ, реализуемых в сфере коммунальных услуг, а также для обеспечения устойчивого социально-экономического развития регионов.

Ключевые слова: коммунальные услуги, экономическая эффективность, организационно-экономический механизм, жилищно-коммунальное хозяйство, система управления, тарифная политика, инвестиции, финансовая устойчивость, эффективное использование ресурсов, качество услуг.

Abstract: This article provides a comprehensive study of organizational and economic mechanisms aimed at increasing the economic efficiency of the communal services provision system. In the course of the research, the current state of the housing and communal services sector is analyzed, existing problems and the factors contributing to their emergence are identified, and the key causes leading to a decline in economic efficiency are determined. The article reveals the essence of optimizing the management system, standardizing service delivery processes, enhancing human resource capacity, economically justifying tariff policy, attracting investments, and implementing financial incentive mechanisms. In addition, the interdependence between organizational and economic mechanisms is substantiated, and it is scientifically proven that their integrated and coordinated application contributes to improving the quality of communal services, optimizing costs, and ensuring financial sustainability. The research findings have practical significance for further improving reforms implemented in the communal services sector and for ensuring sustainable socio-economic development of regions.

Keywords: communal services, economic efficiency, organizational and economic mechanism, housing and communal services, management system, tariff policy, investments, financial sustainability, efficient use of resources, service quality.

■ KIRISH

Bugungi kunda uy-joy kommunal xo'jaligi tizimi mamlakat aholisining turmush sifati, ijtimoiy barqarorlik va hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Suv ta'minoti, issiqlik energiyasi, elektr energiyasi, chiqindilarni boshqarish va boshqa kommunal xizmatlar aholi hayot faoliyatining uzluksizligini ta'minlovchi asosiy infratuzilmaviy sohalaridan hisoblanadi. Biroq mazkur sohada yuqori xarajatlar, eskirgan infratuzilma, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish hamda boshqaruv mexanizmlarining etarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiy samaradorlikning past bo'lishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, kommunal xizmatlar ko'rsatishda iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi nafaqat texnik modernizatsiya, balki tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bilan ham bevosita bog'liqdir. Mazkur maqolada kommunal xizmatlar sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar nazariy va amaliy jihatdan yoritib beriladi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda uning iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid ko'plab adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, O.Skripnik "Increase in competitiveness of housing-andcommunal services"[1] nomli maqolada uy-joy va kommunal xizmatlar sohasining samarali faoliyatiga va raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolar ko'rib chiqilgan. Uy-joy va kommunal xizmatlar sohasidagi tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi asosiy elementlar to'plami sifatida ko'riladi: tashkiliy va ma'muriy, marketing, moliyaviy, ishlab chiqarish, sifat ko'rsatkichlari, rivojlanish ko'rsatkichlari, shuningdek tashkilot jarayonlari bilan bog'liq mehnat ko'rsatkichlari. Olimlarning ta'kidlashicha, raqobatbardoshlikni oshirish tashkiliy va ma'muriy, innovatsion, texnologik va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, xizmat sifatini yaxshilash, xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiya

xarajatlarini kamaytirish hamda yangi xizmatlarni taqdim etish orqali erishish mumkin.

A.Mottaeva va A.Borisova "Improvement of quality of housing-and-communal services management"[2] nomli maqolasida Rossiyada uy-joy-kommunal xizmatlar tizimining barcha darajalarida boshqaruv sifatining pastligi, ushbu sohani boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarining etarlicha o'rganilmaganligi, shuningdek, inqirozdan chiqish va keyingi rivojlanishni ta'minlash maqsadida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Natijada Rossiya Federatsiyasining mintaqaviy va shahar hokimiyatlari tomonidan standart huquqiy yordam, uy-joy qurilishini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, ularni boshqarish samaradorligini baholash usullarini tanlashda va boshqaruv sifatini yaxshilash choralari ishlab chiqish yo'llarini ilgari surishgan. A.V.Pavlova, A.V.Novikova va boshqalar tomonidan yozilgan "Organizational and Economic Mechanism of Services Spheres Innovative Development Maintenance as a Component of Management of Regional Economy"[3] nomli maqolada xizmat ko'rsatish sohasining raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya jozibadorligini oshirish va mintaqalarning ob'ektiv mavjud afzalliklarini oshirish, biznes yuritish xarajatlarini kamaytirish orqali ularning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liqligi yoritib berilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, xizmat ko'rsatish sohasi mintaqaviy bozorlarning eng dinamik va eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biri, shuningdek, mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligining xususiyatlaridan biridir.

Biroq, D.R.Batkeyeva, S.N.Ulakov, Z.N.Borbasova, R.A.Abramov "Problems of attracting investment in housing and communal services"[4] nomli maqolada uy-joy va kommunal xo'jalik sohasida asosiy vositalarni modernizatsiya qilish va ularning takror ishlab chiqarilishini ta'minlash uchun investitsiyalarni jalb etish muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda investitsiya faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, jumladan, narx belgilash siyosati, subsidiyalarning o'z vaqtida ajratilmasligi hamda imtiyozlar tizimidagi



nomutanosibliklar yoritib berilgan. Xorijiy tajriba asosida xususiy kapitalni jalb etishning samarali mexanizmlari, xususan, konsessiya shartnomalarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, uy-joy va kommunal xizmatlar tarkibi hamda ularning mazmuni umumlashtirilib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali investitsiya muhitini yaxshilash zarurligi asoslab beriladi.

Mahalliy olimlarimizdan X.Azimova "Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish"[5] nomli maqolasida xizmat ko'rsatish sohasining samaradorligini oshirish bilan bog'liq tashkiliy mexanizmlar tizimli tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish tizimida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"[6] qarorida Aholiga kommunal xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlar respublikada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy qayta o'zgartirishlarning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi va u yaratilgan qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asosda ro'yobga chiqarilmoqda.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI


Mazkur tadqiqotda kommunal xizmatlar ko'rsatishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilish maqsadida tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish hamda strukturaviy-funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, sohaviy dasturlar va rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili asosida kommunal xizmatlar tizimining amaldagi holati baholandi. Ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajribalarni o'rganish orqali mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligi asoslab berildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda iqtisodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashtirish va urbanizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda kommunal xizmatlar tizimi jamiyat hayotining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim infratuzilmaviy soha sifatida namoyon bo'lmoqda. Negaki, aholi sonining o'sishi, shahar va qishloq infratuzilmasiga bo'lgan talabning ortishi, resurslar cheklanganligi sharoitida kommunal xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, eskirgan texnologiyalar, yuqori ekspluatatsiya xarajatlari va boshqaruvdagi samarasizliklar iqtisodiy natijalarning pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, mazkur sohada tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zamon talabiga javob beruvchi muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Kommunal xizmatlar ko'rsatishda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga bo'lgan ehtiyoj, avvalo, mavjud moliyaviy va moddiy resurslardan oqilona foydalanish zarurati bilan izohlanadi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning etarli darajada rivojlanmaganligi xizmatlar tannarxining oshishiga, moliyaviy barqarorlikning susayishiga va xizmatlar sifati pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, boshqaruv tizimini takomillashtirish, tarif siyosatini iqtisodiy jihatdan asoslash, investitsion faoliyatni faollashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilgan mexanizmlarni ishlab chiqish muhim zarurat sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu jarayon kommunal xo'jalik korxonalarining uzoq muddatli barqaror faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Kommunal xizmatlar ko'rsatishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari⁵

⁵ Muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimida iqtisodiy samaradorlik, avvalo, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va xizmatlar sifatini oshirish orqali namoyon bo'ladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ushbu jarayonlarning muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni samarali qo'llash kommunal xizmatlar sifatini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va aholi ehtiyojlarini to'liqroq qondirish imkonini beradi. Iqtisodiy samaradorlikning oshishi nafaqat kommunal korxonalar moliyaviy holatining yaxshilanishiga, balki davlat byudjeti yukining kamayishiga ham olib keladi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmlar ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlash va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi (1-rasm).

Kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim tashkiliy dastaklaridan biri boshqaruv tizimini optimallashtirish hisoblanadi. Bunda kommunal korxonalar faoliyatini markazlashgan va bir vaqtning o'zida funksional jihatdan ixtisoslashgan holda boshqarish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy tuzilmani soddalashtirish, vakolat va javobgarlikni aniq taqsimlash orqali boshqaruv xarajatlari qisqaradi hamda qarorlar qabul qilish tezligi oshadi. Shu bilan birga, kommunal xizmat ko'rsatish sohasida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi oshishi, takrorlanuvchi funksiyalar qisqarishi, davlat resurslaridan foydalanish samaradorligi ortishi kabi afzalliklarni beradi. Biroq, ushbu sohada yuzaga keladigan ayrim kamchiliklari mavjud. Institutsional qarshilik va byurokratik to'siqlar yuzaga kelishi hamda kadrlar salohiyati etarli bo'lmasa, kutilgan natijaga erishilmaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "uch pog'onadan iborat boshqaruv tizimi"[7]dan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda hokimiyat organlari - birinchi pog'ona, uy-joy mulkdorlari uyushmasi-ikkinchi pog'ona, uy-joy mulkdorlari ijrochilari- uchinchi pog'onani tashkil etib, mijoz to'g'ridan to'g'ri uy-joy mulkdorlarining ixtiyoriy uyushmasi boshqaruvidan foydalanish imkoniyatidan ega bo'ladi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi va xizmatlar uzluksizligi ta'minlanadi.

Xizmat ko'rsatish jarayonlarini standartlashtirish va reglamentlashtirish mexanizmi kommunal xizmatlarning yagona texnik va tashkiliy talablar asosida ko'rsatilishini ta'minlaydi. Bu mexanizmning mohiyati xizmatlar sifati, muddati va hajmini aniq belgilangan standartlar orqali tartibga solishdan iborat. Natijada xizmatlarning barqarorligi, iste'molchilar ishonchi va nazorat samaradorligi oshadi. Kommunal xizmatlar ko'rsatishda texnologik va tashkiliy jarayonlarning yagona standartlar asosida amalga oshirilishi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Xizmatlar ko'rsatish tartibi, muddatlari, sifat ko'rsatkichlari va javobgarlik mezonlarini belgilovchi reglamentlarning joriy etilishi ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Standartlashtirilgan jarayonlar nazoratni kuchaytirib, xizmatlar sifati barqarorligini ta'minlaydi hamda takroriy ishlar va resurs yo'qotishlarining oldini oladi. Shu bilan birga, haddan tashqari qat'iy reglamentlar hududiy xususiyatlarni hisobga olmaslikka olib kelishi,

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

moslashuvchanlikni cheklashi va qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kadrlar salohiyatini oshirish va mehnatni tashkil etishni takomillashtirish mexanizmi inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Uning mohiyati xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, zamonaviy boshqaruv va texnologiyalarni o'zlashtirish hamda mehnat jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Ushbu mexanizm xizmat sifati, innovatsion yondashuvlarni joriy etilish va mehnat unumdorligini oshirishda afzalliklarga ega, Biroq malaka oshirish uchun doimiy moliyaviy resurslar zarurligi, shuningdek, tajribali kadrlarning boshqa sohalarga ketib qolishi ushbu mexanizmning muayyan kamchiliklari hisoblanadi. Kamchiliklarni bartaraf etishda "... davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, davlat fuqarolik xizmati sohasidagi ilmiy va boshqa tadqiqotlarga ko'maklashish, tadqiqotchilik ishlarini qo'llab-quvvatlash hamda davlat fuqarolik xizmatchilarining xorijda tajriba orttirishlarini uchun grantlar ajratish belgilangan[9]. Natijada, xodimlarni qayta tayyorlash, ularning kasbiy malakasini oshirish va zamonaviy boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish orqali mehnat unumdorligi oshiriladi. Mehnatni ratsional tashkil etish, rag'batlantirish tizimini joriy etish va mas'uliyatni kuchaytirish xizmatlar sifatini yaxshilash bilan birga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga olib keladi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirishda tarif siyosati muhim iqtisodiy dastak hisoblanadi. Negaki, tariflar kommunal xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq real xarajatlarni qoplashi, investitsion faoliyatni rag'batlantirishi va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilishi, shu bilan birga, tariflar aholining to'lov qobiliyatini inobatga olgan holda shakllantirilishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun manzilli kompensatsiya mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Bu mexanizm xizmatlar tannarxi, investitsiya ehtiyojlari va aholining to'lov qobiliyatini inobatga olgan holda tariflarni belgilashni nazarda tutadi. Uning afzalligi kommunal korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va infratuzilmani yangilash imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat. Biroq, tariflarning oshishi aholining kam ta'minlangan qatlamlari uchun ijtimoiy bosimni kuchaytirishi mumkin. "Ushbu 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi elektr energetika tarmog'idagi tarif siyosatining asosiy yo'nalishlari elektr energetika tarmog'ining moliyaviy barqarorligiga erishish va energetika infratuzilmasini yanada rivojlantirish prinsiplari asosida aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan barqaror ta'minlash bo'yicha strategik vazifalarni hisobga olgan holda, elektr energiyasi uchun narxni shakllantirishni tartibga solishning davlat siyosatini amalga oshirishning amaliy mexanizmini belgilaydi"[9].

Investitsiyalarni jalb etish va moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish kommunal infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmning mohiyati davlat, xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali asosiy fondlarni yangilash va modernizatsiya qilishdan iborat. Ushbu jarayonda davlat-xususiy sheriklik, uzoq muddatli kreditlar, grantlar va investitsiya dastaklaridan



foydalanish muhim ahamiyatga ega. Investitsiyalarning jalb etilishi asosiy fondlarni yangilash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Afzalligi shundaki, texnik eskirish darajasi kamayadi va xizmatlar sifati oshadi. Biroq investitsion risklar, uzoq muddatli qaytish davri va moliyaviy barqarorlikka bo'lgan talablar ushbu mexanizmlarning asosiy kamchiliklari hisoblanadi[10].

Moliyaviy rag'batlantirish va xarajatlarni optimallashtirish mexanizmlari resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Uning mohiyati tejamkorlikni rag'batlantirish, xarajatlarni kamaytirish va moliyaviy intizomni kuchaytirishdan iborat. Kommunal korxonalar faoliyatida moliyaviy rag'batlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning samarali dastaklaridan biridir. Xarajatlarni tejash, yo'qotishlarni kamaytirish va rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erishgan korxonalar va xodimlar uchun rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy nazorat va audit tizimining kuchaytirilishi resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Bu mexanizm xizmat ko'rsatish tannarxini pasaytirish va daromadlilikni oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, haddan tashqari tejamkorlik xizmat sifati pasayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Umuman olganda, kommunal xizmatlarning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning kompleks va muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi kommunal xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Har bir mexanizmlarning afzalliklari bilan bir qatorda, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni oldindan hisobga olish va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning kompleks va tizimli qo'llanilishi kommunal xizmatlar ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xizmatlar sifati va barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari ushbu sohada mavjud muammolar, jumladan eskirgan infratuzilma, moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanish va boshqaruv mexanizmlarining etarli darajada takomillashmaganligi iqtisodiy samaradorlikni pasaytirayotganini ko'rsatdi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni kompleks va tizimli ravishda joriy etish kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligi asoslandi. Boshqaruv tizimini optimallashtirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish xizmatlar ko'rsatish jarayonlarining muvofiqligini oshirishga xizmat qiladi. Tarif siyosatini iqtisodiy asoslangan va ijtimoiy yo'naltirilgan holda takomillashtirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, aholining to'lov qobiliyatini inobatga olish imkonini beradi. Investitsiyalarni faol jalb etish va moliyalashtirish

mexanizmlarini kengaytirish infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etishga zamin yaratadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy rag'batlantirish va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash kommunal xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Umuman olganda, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishi kommunal xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi takliflar keltirildi:

Birinchidan, kommunal xo'jalik korxonalarida yagona raqamli boshqaruv va monitoring platformalarini joriy etish orqali resurslar sarfi, moliyaviy oqimlar va xizmatlar sifati ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish zarur. Bu boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezligi va aniqligini oshirib, ma'muriy xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, tariflarni shakllantirishda real tannarx, investitsion ehtiyojlar va aholining to'lov qobiliyatini uyg'unlashtirgan holda differensial yondashuvni joriy etish lozim. Shu bilan birga, kam ta'minlangan qatlamlar uchun manzilli subsidiyalar va kompensatsiya mexanizmlarini kengaytirish;

Uchinchidan, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilishda konsessiya, uzoq muddatli shartnomalar va kafolatlangan daromad mexanizmlaridan foydalanish orqali xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish zarur. Bu asosiy fondlarning yangilanishini tezlashtirib, xizmatlar sifati va barqarorligini oshiradi;

To'rtinchidan, kommunal xizmatlar uchun yagona texnik, tashkiliy va sifat standartlarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini baholovchi aniq indikatorlar tizimini joriy etish lozim. Bu xizmatlar sifati barqarorligini ta'minlab, asossiz xarajatlar va resurs yo'qotishlarini kamaytiradi;

Beshinchidan, kommunal sohada faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun uzluksiz malaka oshirish, zamonaviy boshqaruv va texnologiyalar bo'yicha qayta tayyorlash dasturlarini joriy etish, shuningdek, natijaga yo'naltirilgan rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boboqulov Sanjar Bahromqulovich, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, PhD/ Бобокулов Санжар Бахромкулович, Самаркандский институт экономики и сервиса, Доцент кафедры «Цифровая экономика», PhD/ Bobokulov Sanjar Bahromkulovich, Samarkand Institute of Economics and Service, Associate Professor of the "Digital Economy" Department, PhD

e-mail: ferdu_www@mail.ru,

ORCID: 0000-0002-1882-1507

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- [1]. Oksana Skripnik "Increase in competitiveness of housing-andcommunal services" IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 90 (2017) 012144 doi :10.1088/1755-1315/90/1/012144
<https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/90/1/012144/pdf>
- [2]. Angela Mottaeva va Anzhelika Borisova "Improvement of quality of housing-and-communal services management" International Scientific Conference "Construction and Architecture: Theory and Practice for the Innovation Development" (CATPID-2019) Volume 138, 2019 Environmental Economics and Management DOI
<https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913802015>
Published online 16 December 2019 https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2019/64/e3sconf_catpid18_02015/e3sconf_catpid18_02015.html
- [3]. Adeliya V. Pavlova Anna V. Novikova Oksana V. Pogulich Alexey D. Chudnovskiy Chulpan S. Zakirova Elena A. Kaptelinina Alfira Y. Gafurova Elena S. Matveeva "Organizational and Economic Mechanism of Services Spheres Innovative Development Maintenance as a Component of Management of Regional Economy" International Review of Management and Marketing Year 2016, Volume: 6 Issue: 2, 288 - 293, 01.04.2016
<https://dergipark.org.tr/en/pub/irmm/article/355204>
- [4]. D.R.Batkeyeva, S.N.Ulakov, Z.N.Borbasova, R.A.Abramov "Problems of attracting investment in housing and communal services" BUKETOV BUSINESS REVIEW, Vol. 102 No. 2 (2021) 102(2), 43–55. DOI: <https://doi.org/10.31489/2021ec2/43-55> online available: <https://bbr.buketov.edu.kz/index.php/economy-vestnik/article/view/193>
- [5]. Azimova Xurshida "Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni oshirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish" "Zamonavi dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy amaliy konferensiya 172-179-betlar
<file:///C:/Users/User/Downloads/ZDIFT+1939.pdf>
- [6]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 03.11.1998 yildagi 461-son
<https://www.lex.uz/uz/docs/-802905?ONDATE=16.12.2025>
- [7]. Mohidil Mardanova "Kommunal xizmatlar boshqaruvi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar" November 2025 QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI 16:84-86 DOI:10.54613/ku.v16i.1310 LicenseCC BY 4.0
https://www.researchgate.net/publication/398150007_KOMMUNAL_XIZMATLAR_BOSHQARUVI_SAMARADORLIGIGA_TA'SIR_ETUVCHI_OMILLAR
- [8]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 03.10.2019 yildagi PF-5843-son
<https://lex.uz/docs/-4549998?ONDATE=01.05.2023>
- [9]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Elektr energetika tarmog'ida tarif siyosatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori 13.04.2019 yildagi 310-son
<https://lex.uz/docs/-4289870?ONDATE=27.06.2020>
- [10]. Malikova Shoiray Baxtiyorovna Xizmat ko'rsatish sohasini investitsiyalarni jalb qilish vositasida rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес» Журнал: Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика) 2025
<https://cyberleninka.ru/article/n/xizmat-ko-rsatish-sohasini-investitsiyalarni-jalb-qilish-vositasida-rivojlantirishda-davlat-xususiy-sheriklik-mexanizmlarini>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz